

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: O'zbekiston nashriyoti, 2021.
2. Qobusnoma. - Toshkent: Meros, 1992.- 33 - 34-betlar.
3. Kramer S.N. Istoriya nachinayetsya v Shumere - Moskva: Nauka, 1991.
4. Kyera E. Oni pisali na gline.- Moskva: Nauka, 1984. S. 87-93.
5. Jo'rayev N. Agar ogoh sen... - Toshkent: Yozuvchi, 1998.- 106 - 107-betlar.
6. Haqqul I. Navoiyni anglash mashaqqati // O'zbek tili va adabiyoti, 2005. - 141, 5-bet.
7. Qobusnoma, 34-bet.
8. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". – Toshkent, 2017.
9. A.Navoiy. Nazm ul –javohir.- Toshkent, 2014
10. Navoiy. A.MAT: 20 tomlik. 11 t. Xamsa: Saddi Iskandariy. - Toshkent: "Fan", 1993. –B. 24-34.

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MILLIY QADRIYATLARNING BADIY TALQINI.

Namazova Manzura Urakovna- Shahrizabz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası v.b. dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

***Annotatsiya.** Milliy o'zlikni anglash va milliy qadriyatlarning badiiy talqini Rustam Musurmon she'riyatini ichdan nurlantirib va uni tutib kuch. Uning "Buyuk yo'l", "Uchinchi renessans poydevori", "Ona tilimda nutq", "Ona tilim", "Vatanim", "Termiz", "Oqsaroy", "Bunyodkorlik" singari ko'plab she'rlari fikrimizni to'la tasdiqlaydi.*

***Tayanch so'zlar.** adabiyot, milliylik, jasurlik, mardlik, qadr-qimmat, jadidlar, illatlar, johillik, ilmsizlik.*

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Намазова Манзура Ураковна-Шахрисабзский государственный
педагогический институт, кафедра узбекского языка и литературы,
в.и.доцент,доктор филологических наук (PhD)

***Аннотация.** Понимание национальной самобытности и художественная интерпретация национальных ценностей освещает поэзию Рустам Мусурмана изнутри и удерживает ее. Многие его стихотворения, такие как «Великая дорога», «Основание третьего Возрождения», «Речи на родном языке», «Мой родной язык», «Моя Родина», «Термиз», «Оксарой», «Строительство» наполняет наши мысли.*

Ключевые слова. литература, национализм, мужество, отвага, достоинство, современность, пороки, невежество, невежество.

ARTISTIK INTERPRETATION OF NATIONAL IDENTITY AND NATIONAL VALUES.

Namazova Manzura Urakovna Shahrizabz State Pedagogical Institute
Department of Uzbek Language and Literature, associate professor (PhD)

Abstract. *Understanding of national identity and artistic interpretation of national values illuminates Rustam Musurman's poetry from the inside and holds it. Many of his poems, such as "The Great Road", "The Foundation of the Third Renaissance", "Speech in My Mother Tongue", "My Mother Tongue", "My Motherland", "Termiz", "Oksaroy", "Building" fill our thoughts.*

Key words. *literature, nationalism, courage, bravery, dignity, modernity, vices, ignorance, ignorance.*

Kirish (Introduction). Insonning haqiqiy qadr-qimmati, uning kimligi va qanday odam ekanligi Vatan bilan belgilanadi. Inson taqdiri hech qachon vatandan ayro bo'la olmaydi, shu bir so'zda inson qismati hal bo'ladi shoir vatan himoyachilariga murojaat qilarkan, vatan xalqni qo'riqlash uchun chegaralab olingan hududligi va uni dushmanidan asrash va himoya qilish san'ati Shiroq va To'marisdan qolgan meros ekanligini uqtiradi. Mardlik er yigitning ziynati, jangda ba'zan bitta qo'rqmas, dovyurak alp yigit zabt etib bo'lmaydigan istehkomga aylanadi. Qo'rqoqlik esa xoinlikning boshlanishi, chunki qo'rqoq uchun muqaddas tushunchaning o'zi yo'q. "Biz ona vatanga qilamiz xizmat", "Vatan himoyachilariga" she'rlarida mana shunday yuksak qadriyatlar xususida so'z boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Shoir "Muqaddas burch" she'rida vatanni sevish oliyjanoblik va har bir fuqaro oldidagi burch ekanligini uqtiradi:

Xalqning nomi bilan aytab qasamyod,
Vatanni sevgaymiz jondan ham ziyod.
Armiya xalq bilan hamisha birdam,
Yangi O'zbekiston bo'lgaydir bunyod [5, 76]

Shoirning "Polvon", "El egasi er yigit", "Ona va o'g'il" kabi she'rlarida mehr-oqibat, mardlik, halollik, or-nomus xususida so'z boradi. Sharqda barcha zamonlarda sharm-hayo, or-nomus oliy qadriyat sanalgan. Xalq og'zaki ijodida ham bu fazilatlar alohida diqqat qaratiladi. "Uyat – o'limdan qattiq", "Nomus bozorda sotilmas" kabi maqollarning zamirida ham insonning sha'ni muqaddas ekanligi, odobning bebaho ne'matligi, insonning insonligi uning or-nomusi bilan o'lchanishi uqtirilgan. Shoirni "yuzi qarolar"– hayosizlarning ko'payib borayotgani tashvishga soladi. Uzoq yillar davomida begona, sho'roviy e'tiqod, tuzum ostida ushlab turilgan xalqni ichdan yemirishning yo'li uning maslak-e'tiqodini sindirish bo'lgan. Buni o'z vaqtida sezgan jadidlar XX asrning boshlaridayoq bu masalani ko'tarib chiqqan edilar. Behbudiy,

Munavvarqori, Fitrat, Cho'lon, Hoji Muin, Mirmuhsin Shermuhammedov, A. Avloniy singari ma'rifatparlar matbuot, teatr va o'z asarlarida bu illatlarga qarshi kurash ochgandilar.

Hamma jadidlar ortiqcha urf-odat, dabdaba, ma'rakabozlik, isrofgarchilik, qimor, ichkilik, fahsh, it urishtirish, hatto ko'pkariga ham qarshi bo'lganlar. Sababi, bu nojo'ya, gunoh ishlar millat oyog'iga tushov, taraqqiyotiga, ijtimoiy-siyosiy fikr tarziga g'ov deb to'g'ri o'ylaganlar. Chunki, jaholatning qaysi ko'rinishi bo'lmasin, kattami-kichikmi ijtimoiy, siyosiy, falsafiy fikr yovi, o'z a'moli badiga g'arq qilish, taraqqiy, ma'rifatdan chalg'itishdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy yozgan, milliy turmushimizdan olingan "Padarkush" dramasini eslang. Boy odamning johil ilmsiz o'g'li ichkilik, qimorga berilib, o'z otasini o'ldirishgacha boradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Amir Xudoyberdining 1989 yilda yozilgan "Bu zamona zaylimi" she'rida ham millatimiz sha'niga qora dog' bo'lgan – axloqsizlik va ichkilikbozlik tanqid qilingan:

Ayollarda ro'mol yo'q,
Erkaklarda belbog' yo'q.
Kazzoblarni osishga
Dor topilmas – sirtmoq yo'q!
Bu zamona zaylimi [10, 23]?

Or, nomus, insonning sha'ni va qadr-qimmatini bebaho, uni moddiy ne'matlar bilan o'lchab bo'lmaydi. Shiddat bilan rivojlanayotgan davrimizda axloqning tobora yemirilib borayotganligi, o'zbekona hayo, ibo, or, nomus kamyob bo'lib borayotganligi, oilaviy ajrimlarning soni ortib borayotganligi achchiq haqiqat. Biz uchun taraqqiyot qanchalik zarur bo'lsa, odob-axloq undan ko'proq kerak. Olam yaralgandan buyon taraqqiy topgan ne-ne ulkan tamaddunlarning yo'qolib ketganligi tarixdan ma'lum. Buni anglagan shoir she'rida zamonamizning "Alpomishu Barchinoy" lariga murojaat qilib vafo mehr qani deya ularga o'z noroziliklarini bildiradi:

Barchinoy sadoqatin,
Saqlab turar tishida.
Ultontozdan orttirgan
Gumonasi ichida
"Ko'ngil ko'zgusi" faslida shoir yozadi:
– Men sizni sevaman, ishonmasangiz,
Ichishim mumkindir hattoki qasam.
Nahotki?!

– Ishoning, sevgim – beshumor,
Semiz hamyoningiz ursin, aldasam... [10, 23]

Hamma narsani pul, boylik bilan o'lchash ma'naviy qashshoqlik, mahdudlik belgisi. O'z nomusini sotgan hech kimga vafo qilmaydi, chunki o'zini sotgan, albatta, nafs uchun hammaga xiyonat qiladi.

"Iffat deb, – yozadi Abdulla Avloniy, – nafsimizni gunoh va buzuq ishlardan saqlamoqni aytilur. Bizlarni gunoh va ma'siyatdan saqlaguvchi, harom-harishdan

nafsimizni asraguvchi faqat iffatimizdir [1, 58]”. Demak, tarixan keng tushuncha, qamrovga ega bo‘lgan iffat so‘zi bizning davrimizda ma’nosi bir qadar torayib, hozir, odatda hayo, bokiralik, afiflik ma’nodoshi sifatida qo‘llanadi.

Aslida esa iffat ma’no qamrovi ancha keng insonning gunohlar qilishdan (yolg‘on, g‘iybat, bo‘hton, dilozorlik, vijdotsizlik, adolatsizlik, axloqsizlik) saqlanish bo‘lib, hayo uning bir qismidir.

Iffat – so‘zda sodiqlik, maslakda mustahkamlik, vijdonga qarshi ish qilmaslikni talab qiladi. Demak, iffat insonning eng ulug‘ fazilati, gunohlardan tiyuvchisi, or-nomusi, vijdon ko‘zgusi, shaytoniy qutqulardan asraguvchisidir. Iffatning zidi iffatsizlik, ya’ni gunohlarga boshlovchi, balo eshiklarini ochuvchi, ko‘ngillarga chirk, qurum yuqtiruvchi manfiy xususiyat. Hayo ibo esa, Abdurauf Fitrat “Najot yo‘li” asarida yozishicha, “iztirobki, gunoh ish qilish asnosida odamning vijdoni uyg‘onib, uni shu ishdan manfaat qiladi. Hayo – bu gunohini boshqalar bilib qolishidan qo‘rqish [8, 151]”.

Hayo odamning hayotda, muomila-murosada, ishda, so‘zda odob qoidalariga, milliy qadriyatlarga rioya qilishi, xushfe’lligi, halimligi, andisha va oqibatlilik, kamtar va adolatlilik, ma’naviy-ruhiy boyligi, yaxshi tarbiya ko‘rganligidir. Hayoli odam tili va diliga mustahkam bo‘ladi. Hayoli odam irodali, qat’iyatli, vijdoni pok, imon - e’tiqod, maslagi mustahkam bo‘ladi. Amir Xudoyberdi barcha zamonlar uchun muhim ahamiyat kasb etgan hayo, vafo to‘g‘risida kuyunib yozadi:

Sharmanda qo‘rqmaydi sharmandalikdan,
Yuz o‘g‘irgan Haqqa u bandalikdan.
Balchiqqa botishdan qo‘rqmaydi to‘ng‘iz,
Go‘ng ichida huzur qiladi qo‘ng‘iz [9, 329].

Shoir uyatsiz, or-nomussiz kishilarning qiyofasini to‘ng‘iz va qo‘ng‘izga o‘xshatadi. Bu ikki jonivor aqli bo‘lmaganligi uchun haloldan haromni farqlamaydi, biroq insonga eng bebaho ne‘matlar aql, tafakkur berilgan. Hayo, ibo, zehn, fikr, xotira, qiyosiy mushohada zo‘rligi va qiyosidan kuch olib boradi. Hayosiz odam esa oilaga, din va millatga koni zarardir. Hayo kishini aziz va mo‘tabar, hayosizlik xoru zor qiladi.

Millat bu “ommaviy madaniyat” niqobi ostida tiqishtirilayotgan jiddiy xavfdan ehtiyot bo‘lishi va unga qarshi ma’rifat, ta’lim bilan tizimli kurashishi lozim.

Ulug‘ Shayx Zunnuni Misriy: “Allohnin zikri mening jonimdir, hayo esa mening libosimdir!” – degan ekanlar. Endi shu hikmat ko‘zi bilan dunyo va milliy hayotimizni kuzating-chi?! Har kimning iffatu hayoti uning ma’naviy ruhiy boyligi, mavqeyi hamdir. Hayosiz odamlar kam yuksaladi, mabodo, tasodif bilan nimagadir erishsayam, oqibati xosiyatli bo‘lmas. Xalq o‘zining ming yillik tajribasidan kelib chiqib, yaxshilik qilishga, har doim halollikka qasd qilishga, poklikka intilishga da’vat qiladi va odob, hayo, xushxulqlik inson uchun aziz ne‘mat ekanligiga katta e’tibor qaratadi.

Ya’ni, elga molu dunyo, sharaf-shon obro‘ bo‘lmay, hayo bilan odobgina sharaf hisoblanadi. “Yaxshi qiliq” – hayo va odob degani. Odamning hayosi – uning asli, nasli, tarbiya, ma’rifat, zakosini ko‘rsatadigan oynasi.

“Baxshiyona” she’ri xalqona ohanglarda, qipchoq lahjasida 1999 yilda yozilgan. Unda Maxtumquliga izdoshlik va hamohanglik, xalq dostonlariga xos sodda va ravon

uslub, ogʻzaki ijodga xos obrazlar boʻrtib koʻrinadi. Muallif oʻz oʻquvchisiga boshingga ogʻir kulfat tushganda ham oʻzini qoʻlga olish, irodali boʻlish, yigʻlamaslik, aks holda dushmanlari uning ahvolidan kulishlarini, oʻlsa ham, bardoshli boʻlishni uqtiradi. Borar joying togʻ boʻlsa, botqoqlikka qulama, deydi shoir. YA'ni, oʻzingga munosib boʻlgan davraga oʻtir, hurmating va qadringni bilgan bilan doʻst tutin, aks holda uyaliq qolasan, deydi u:

Elim deding, shon quchding,
Diyning, deb iymon quchding.
Nomusing oq yaktakni
Qora loyga bulama.
Inonmagin roziga,
Soxta, chuchmal noziga.
Kokili tovon urgan
Qizning sochi ulama [9, 134].

Mustaqillikka qadar boʻlgan davrda adabiyot mavzuvii va chegara jihatdan ma'lum cheklovlarga ega edi. Bu cheklov millatning ong-tafakkuriga, aql-zakovatiga, tili va diniga, madaniyati va ma'rifatiga urilgan ulkan, ogʻir temirdan iborat edi. Choʻlponning “Ey koʻngul, sen munchalar, kishanlar birla doʻstlashding yoki ... ki sen ham hur tugʻilgʻonsen [2, 444]”, - deb faryod chekkani behudaga emas. Shunga hamohang shoir yozadi:

Erk ohusimdir magar suv ichar koʻngildan,
Suvning har qatrasini nolon, eshitmas...
Zangladi kishanlar, dema, hurriyatdin
Ungan gilyoh ohimni nayson eshitmas.
Zindon hidi kelar olamdin, istiqloq
Befarqlik domida ayon, eshitmas...
Onam qoʻygan edilar ismimni Amir deb,
Qul jismim ismimni hamon eshitmas [9, 232].

Totalitarizm fikr erkinligiga shunaqa hamla qildiki, buni hech qachon xayolga keltira olmasdik. Tan olish kerakki, uning fikrni nazorat qilishi faqat taqiqlash maqsadlarini emas, balki kerakli rejalarni ham nazarda tutadi. U nafaqat ayrim fikrlarni ifodalashga qarshilik qiladi, balki nimalar haqida oʻylash lozimligini uqtirib turadi; shaxs qabul qilishi lozim boʻlgan mafkura yaratiladi, uning his-tuygʻularini boshqarishga tirishadi va axloq namunasini belgilab beradi. Mafkura shaxsni, iloji boricha, sunʼiy muhitga solish, taqqoslash imkonidan mahrum etish uchun tashqi olamdan ajratib, oʻrab tashlaydi. Totalitar davlat, albatta, oʻz fuqarolarining fikr va tuygʻularini, xuddi ularning xatti-harakatlarini nazorat qilgandek, nazorat ostiga olishga urinadi [7]. 1941-yilda J.Oruell tomonidan berilgan baho XX asrning soʻnggi oʻn yilligiga qadar amalda yanada rivojlantirildi. Odamlarning har bir fikrini nazorat qilgan qonli siyosatning ijodkorlarga munosabatini tasavvur qilish mumkin. Buni millatni ozod va hur koʻrishni istagan Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Choʻlpondan tortib, Maqsud Shayxzoda, Oybek, Mirtemir, Rauf Parfigacha boʻlgan vatanparvarlarning taqdiri misolida koʻramiz.

Rustam Musurmon dunyoqarashining shakllanishida o'zbekning asrlar davomida xalqning qon-qoniga singib ketgan urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi ham katta ta'sir qilganligi, shubhasiz. Uning nigohlarida sodda, to'pori, halol, tanti, bag'rikeng, odamoxun, oriyatli qishloq odamlarining aksi qotib qolgan. Shoir dunyoni ularning nigohi bilan ko'radi, voqea-hodisalarni o'sha mezonlarda baholaydi. She'r o'sha yurakda tug'iladi. Asriy qadriyatlar, betakror ma'naviy meros saqlanib qolgan go'shasini sog'inishi ham shundan. Shoirning bisotida "Vatanim", "G'urur", "Eng qadim turku", "Mustaqillik", "Oqsaroy" kabi she'rlari uning yurt tarixini chuqur bilishini, qadrlashini, sevishini ko'rsatadi.

Odam Otaning nasliga beshik bo'lgam tog'larim,
Moma Havoning vasliga oshiq bo'lgan bog'larim,
Avliyolar isi kelgan mo'tabar tuproqlarim,
Ohuvva-hay, vatanim-ay,
Ohuvva-hay, vatanim! [4, 35].

"Umuman olganda, istiqlool adabiyotga, yozuvchiga nimalarni tuhfa etdi? – deb yozgandi Abdulla Oripov. – Avvalambor, u chinakam ijod qilish, yaratish, haq so'zni, haqiqatni baralla aytish erkinligini berdi. E'tibor qiling, sho'rolar davrida milliy qadriyatlarimiz moziydagi qahramonlarimiz qariyb qalamga olinmas, olinganda ham ular sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan tahlil etilar, qoralanardi, xolos. Diniy e'tiqod esa butunlay manfiy tushunchaga aylantirilgan edi. Bir yoqlamalilik, yuzakichilik, ijodkorlarimizni bir xil ovozda, bir xil ohangda kuylashga o'rgatib qo'ygan edi. Faqat baxt va saodatni kuylash, aslida, yo'q yorqin kelajakni ulug'lash odat tusiga aylangan edi. Inson hayotidagi turli iztiroblar, ziddiyatlar, mag'lubiyatlar qatag'on mavzu hisoblanar, ular aslo rag'batlantirilmay edi [6, 272]".

Qur'oni Karimda ham munofiqlik gunohi kabira ekani aytilgan: "...Ular Ollohni va iymonli kishilarni aldamoqchi bo'ladilar va o'zlari sezmaganlari holda faqat o'zlarinigina aldaydilar. Ularning dillarida maraz-iymonsizlik bor edi, bas, Olloh marazlarini yanada ziyoda qildi. Ular uchun qilgan yolg'onlari sabab alamli azob bordir [5, 37]".

Milliy qadriyatlarning poetik talqinida shoir qator ifoda-tamsillarni o'zaro zid qo'yib, kontrast usulida yorqinlikka va teranlikka erishadi. Aniqrog'i, muallif ezgulik elementlarini tasvirlashda yorug'lik, yovuzlikni ifodalashda esa zulmni bildiruvchi ramz va timsollardan unumli foydalanadi. Ijobiy va salbiy ikki kuchning o'zaro kurashi shu tariqa jonlantiriladi, bunday she'rlarda badiiy ijodning rangtasvir va kino sa'nati bilan sintezini ko'rish mumkin. Muallifning "men"ini to'laqonli ifodalash, ma'naviy-ruhiy olamni ko'rsatish uchun jonli va jonsiz yaratilqlar muhim badiiy tasvir vositasiga aylanadi.

Amir Xudoyberdi har bir narsa o'zining ziddi orqali o'zligini namoyon qilishini va asliga muvofiq aks etishini nazarda tutib, aytmoqchi bo'lgan fikrini qarshilantiradi va shu yo'l bilan she'rning ta'sirchanligini yanada oshiradi:

Aravani to'xtating, tushib qolaman,
Axir boshqa erur borar manzilim.
Yanglishib minibman, to'xtating tezroq,
Tushman bu bekat bo'lsa-da o'lim [9, 9]!

Lirik qahramon 1 shaxs, kishilik olmoshi men – shoirning o'zi. U 1986 yilda yozilgan bu she'rida yolg'on, soxtakorlik, zulm va aldovga asoslangan mustabid sovet tuzumiga, uning totalitar mafkurasiga ochiqdan-ochiq qarshi chiqadi. Xalqni tili, dini, tarixi va milliy qadriyatlaridan ajratib, asoratda, mute va fikrsiz holda tutib turishni ko'zlagan hukmron jamiyatning tanazzulga uchrashi muqarrar. Lirik qahramon bu siyosatga bo'ysunishni, unga xizmat qilishni istamaydi. Arava ustidagilar unga begona, chunki ular allaqachon qalbini, o'zligini yo'qotgan qavm. Aravakash esa uning dod-faryodiga parvo qilmaydi, aravadagilar uning ustidan kulishadi. Manqurtga aylanib borayotgan bu to'da uchun dunyo – arava, ularning ixtiyori, erki aravakashning qo'lida. Mustaqillikdan besh yil oldin yozilgan mazkur she'rda mustabid tuzumning xalqni aldab-avrab o'z qo'shig'ini aytishga ko'ndirgani, ammo hushyor kishilarning bu yo'lining mahdudlik, manqurtlik saltanatiga olib borishini allaqachon anglab yetganliklarini ko'rsatadi. Shuning uchun manzilga teskari tomon ketayotgan aravadan tushib qolishni istaydi:

Tuyoqlari qizib sapchiydi otlar

Borar manzilimga teskari tomon [9, 9].

Uchinchi Renessans davriga tayyorgarlik ko'rilayotgan davrda ham poraxo'rlik, korrupsiya muhim muammoligicha qolmoqda. Davlat idoralaridagi ko'zbo'yamachilik, sansalorlik, o'zboshimchalikni tugatishga qarshi chora-tadbirlar ko'rilmogda, ammo uzil-kesil nuqta qo'yish imkonsiz bo'lib qolmoqda. Kundalik hayotda uchratishimiz bo'lgan mana shunday holatlar shoirga begona emas:

Kibru havolangan nafsing endi xor,

Tepadan to'qmoq yeb ahvoling abgor.

Yalinib-yolvorgil, iltijolar qil,

Shoyad qabul etsa tavbangni G'affor [9, 370].

Ma'lumki, Shayton dastlab farishta, balki farishtalar ustoz edi. Uni haris deb atashar, bu so'z izzat-nafsini haddan ziyod baland tutuvchi ma'nosini bildirar edi. U toat-ibodatni ham haddan oshirar edi. Butun koinot bo'ylab Ollohga sajda qilar, u Allohga sig'inmagan biror joy qolmagan edi. Parvardigor odamni yaratganida, u toat-ibodatlari tufayli kekkayib, kibru havoga berilgandi. Shu sababli ham Allohning, Odamga sajda qil, degan buyrug'idan bo'yin tovladi. Manmanlik, takabburligi tufayli Allohning lutfu marhamatidan mahrum bo'ldi.

“...Tasavvuf ahlining imomi, ilm dengizining duri, ilm sabotining tog'i” (F. Attor ta'birlari) Siri Saqatiy hikmatlaricha: “Agar gunoh kibrdan bo'lsa, uni kechiriladi, deb umid qilmanglar. Chunki, Hazrati Odam Atoning gunohi shahvatdan, u kechirildi. Iblisning gunohi kibrdan edi, u abadulabad kechirilmas!” [3, 288]. Demak, bu dunyodagi manmanlik, takabburlik bilan bog'liq gunohlar kechirilmas ekan, bandaning umidvor bo'lishi ham xato ekan:

Mish-mishchining tili uzun, g'iybatchining qulog'i,

Qoraqum yuragida zahar-zaqqum bulog'i.

Go'ng titgandek huzur qilar fisqu fujur gaplardan,

Pokroq erur bundaylarning og'zidan it yalog'i [10, 370].

Amir Xudoyberdi o'zining “Osiy banda” she'rida o'zining kamchiliklarini, faqat o'ziga xos bo'lgan nafsga qullik, irodasizlik, qo'rqqoqlik, xudbinlik va mahmadonalik

kabi illatlarni sanab, bunday “dard” lardan qutulishi uchun Xudoga duo qiladi. She’r yakunlanib borar ekan, shoir birgina bandda “men” dan atrofidagi odamlarning tavsifini keltirib o’tadi va unday insonlar bilan yashash ham baxtsizlik ekanligini aytib, Xudodan yaxshisi jonimni olib iymon bergin deya iltijo qiladi:

Chor atrofga qaraydurman: zamon ahli
Zalolatga mukka tushgan, kosir aqli.
Bo’lolmadim bu izdihom ichra baxtli,
Ol jonimni, Xudo, bergil iymonimni [10, 25].

Shoir yana shu mavzuda qalam tebratar ekan, riyokor insonlar haqida shunday deydi:

Taqvoda taqvosiz kimsalar ham ko’p,
Ular ayro emas, afsuski, to’p-to’p.
Dinning mag’zin qo’yib, po’chog’in chaynar,
O’ng qo’lida Qur’on, chap qo’lida cho’p.

Bu to’rtlik yuqorida aytganimizday riyo haqida. Riyo degani o’zini taqvodor ko’rsatib, aslida muttahamlik, firibgarlik bilan shug’ullanishni kanda qilmaydi. Bu tipdagi munofiq kimsalar oz emas, “to’p-to’p”. Oxirgi misrada yumor hissi ham mavjud. Bir qo’lida Qur’on ko’tarib, o’zini dindor ko’rsatishga urinayotgan chala mulla, amalda boshqalarning ketini kovlash bilan huzurlanadi. Shu bois ularning ikkinchi qo’lida doim cho’p bo’ladi. Bu ramziy ma’noga ega, aslida shoir insonni til va dil birligiga da’vat etmoqda. Riyo, munofiqlik yomon illat ekanini uqtirmoqda. Shoirning bu maqsadi takror (taqvo, to’p-to’p, qo’l), tazod (mag’iz–po’choq, o’ng–chap) va tajnis (ko’p, to’p, cho’p – ayni paytda qofiya ham) san’ati orqali yuzaga chiqqan.

Shoir o’zining ko’plab she’rlarida insonlar timsolini berishda hayvonlardan foydalanadi. Masalan, bulbul obrazi orqali oddiy xalq vakilini gavdalantirishga harakat qiladi va unga zog’ obrazini doimo zid ravishda qo’llaydi. Bunday juft holatda ishlatishni uning ko’plab she’rlarida ko’rish mumkin. Masalan, “Evrilish” kitobida keltirilgan misollarga e’tibor qaratadigan bo’lsak,

Men bulbul umrini yashasam bo’ldi,
Yarashadi uzoq umr zog’larga.
Bor umrimni bergum tog’da chuldur-chuldur
Oqayotgan sho’x buloqlarga! [10, 47].

yoki:

Bu xarob olamda zog’lar ishratiga had urib,
Bulbuli zorimni kuylatmoqqa bir gulzor kerak [10, 98].

yoki:

Dunyo ma’nosi bir “oh” dir, azaldan u xarob bog’dir,
Ko’ngil – bulbul, vujud – zog’dir, galamdin voz kecholmasman [10, 128].

kabi misralarga duch kelamiz. Bu esa shoirning tashbehlarida bir xillik orqali mavzuning davomiyligini va an’anaviylikni taminlashga ximzat qilmoqda.

Har ikki shoir ijodining deyarli har birida milliy qadriyatlar, o’zlik masalasi ustun turadi. Insonlarni komillik sari harakat qilishga chorlaydi. Yomon odatlar, amallar, illatlardan qochishga undaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion). Har bir ijodkor, avvalo, o'z davrining farzandi. Shoir mustabid sho'ro zamonida tug'ilib, o'sha davr fojealarini o'z ko'zi bilan ko'rib, mustabid tuzumning inson erkini va haq-haquqlarini oyoqosti qilganligini ko'rgan, bu esa uning shaxs va ijodkor sifatida shakllanishiga, ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatgani tabiiy. Shoirning davr, tarix, voqelikka munosabatidan yaratilgan she'rlarida lirik qahramon "men"i – shoir shaxsiyatining muayyan aksi yaqqol ko'rinib turadi. Zulm, istibdod, ma'naviy qashshoqlik, erksizlikka qarshi isyon, milliy qadriyatlarning badiiy talqini Rustam Musurmon ijodining mazmun-mundarijasini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. -Т.: "Маънавият", 2006.- 58-бет.
2. Абдулҳамид Чўлпон. Яна олдим созимни.- Т.: "Ғафур Ғулом", 1991.- 444-бет
3. Фаридиддун Аттор. Тазкират ул-авлиё. Таржимон Абдулҳамид Мадраимов.-Т.: Ғ.Ғ номидаги НМИУ, 2012.- 288- б.
4. Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи: Алоуддин Мансур. - Т.: Чўлпон, 1992. - 544 б.
5. Мусурмон Р. Бир жуфт сўз.- Т.: АДАБИЁТ, 2022. - 434 б.
6. Орипов А. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 2-жилд. - Т.: Ғ.Ғулом
7. Орипов А. ҳаж дафтари. ҳикмат садолари. - Т.: Шарқ, 1992. - 64 б.
8. Оруэлл Ж. Адабиёт ва тоталитаризм. Таржимон: А.Отабой. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 1996.- 16-август.
9. Фитрат. Танланган асарлар.- Т.: Маънавият, 5-жилд. 2010. 302 б.
- 10.Амир Худойберди. Таҳаммул.- Т.: Муסיқа, 2015.-432 б.
- 11.Амир Худойберди . Эврилиш.- Т.: Янги аср авлоди, 2002.- 242 б.

**XX ASR INGLIZ, O'ZBEK VA TURK HIKOYACHILIK
NAMUNALARINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI**

Elboyeva Madina Botirovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
madinaelboyeva1102@gmail.com orcid: 0009-0001-9178-7536

Niyazova Feride Seyful qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
ferideniyazova93@gmail.com

Islomova Aziza Hasan qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
islomovaaziza95@gmail.com orcid: 0009-0006-8867-2283

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot maqolasida ingliz, o'zbek va turk adabiyotida XX asr ingliz va o'zbek hikoyachiligining ahamiyati va roli haqida fikr yuritiladi. Hikoya janri rivojida hissa qo'shgan jahon va o'zbek adiblari Jek London, Vashington Irving,